**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
_______________O.Sh.Bazarov
(OTM rektori)

2023 yil “__21__” __08__

# *BANK HISOBI, TAHLIL VA AUDIT*

**O‘QUV DASTURI**
**(sirtqi)**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta‘lim sohasi:** | 230000 | - | Iqtisod |
| **Ta‘lim yo‘nalishi:** | 5230900 | - | Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) |

**Qarshi – 2023**

| **Fan/modul kodi** | **O‘quv yili** | **Semestr** | **ECTS - Kreditlar** |
|---|---|---|---|
| BAAA2708 | 2023-2024<br>2024-2025 | 8-9-10 | 8 |

| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | **Haftadagi dars soatlari** |
|---|---|---|
| Tanlov fan | O‘zbek/rus | 4 |

| | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Bank hisobi, tahlil va audit** | 32 | 208 | 240 |

**2.**

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – kelgusida respublikamizda yuqori malakali iqtisodchi – mutaxassislar bo‘lib yetishadigan talabalar uchun banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilim berish, ularda banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda qo‘llaniladigan hisobvaraqlar rejasi, bank balansi, bank hisobotlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishdir.

**Fanning vazifalari** – talabalarga bank buxgalteriyasini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlari berish, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini halqaro standartlar asosida yuritishni tashkil qilish, bank buxgalteriyasi operatsiyalarini rasmiylashtirilishi va hisobini o‘rganish, banklar faoliyatini tahlil qilish, banklarni har bir operatsiyalari bo‘yicha tahliliy jarayonni o‘rganing hamda banklarini audit jarayonini tashkil etish va audit jarayonini chuqur o‘rganishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1-mavzu. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va banklarda balansning yuritilishi

Banklarda buxgalteriya hisobining mazmuni va uni tashkil etishning ahamiyati. Bank hisob-operatsion apparatining tuzilishi; buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari, banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari.

Banklarda balans haqida tushuncha, balansning passiv va aktiv tomonlari, balansda xo’jalik operatsiyalarini aks ettirish masalalari, balansning ikki yoqlama yozuv usuli bilan aloqadorligi.

### 2-mavzu. Bank hujjatlari, bank ichki nazorati, banklarda bosh va yordamchi kitoblar

Bank hujjatlarining mazmuni, ahamiyati, turlari va ularning tavsifi. Yelektron hujjatlar va ularni shakllantirish. Banklarda hujjatlar aylanishini tashkil qilish, buxgalteriya hujjatlarini saqlash tartibi, arxivlashtirish.

Bank ichki nazorati, uning turlari va ahamiyati, ichki nazoratni tashkil qilish,

| | |
|---|---|
| | dastlabki nazorat, joriy nazorat, so‘ngi nazorat.<br>Bosh va yordamchi kitoblarning mazmuni. Yordamchi kitob va uning tavsifi, bosh kitob va uning tavsifi. Bosh va yordamchi kitoblarni tekshirish, buxgalteriya yozuvlaridagi xatolarni tuzatish tartibi.<br><br>**3-mavzu. Mijozlarga hisobvaraq ochish hamda yuritish tartibi, banklarda depozit va naqd pulsiz hisob–kitob operatsiyalari hisobi**<br>Banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari. Bank hisobvaraqlarini yuritish bo‘yicha shartnoma va uning mazmuni. Hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. Mijozlar hisobvaraqlarini yopish va qayta rasmiylashtirish tartibi.<br>Depozit operatsiyalari hisobining tashkil yetilishi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hisobi. Muddatli va jamg‘arma depozitlari bo‘yicha operatsiyalar hisobi. Mijozlarning boshqa depozit hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar hisobi.<br>Naqd pulsiz hisob-kitoblar mohiyati va ularni tashkil etish asoslari. To‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar, to‘lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar; akkreditivlar bilan hisob-kitoblar; inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar, tijorat bankning hisob-kitob cheki bilan hisob-kitoblar, bank plastik kartochkalari bilan hisob- kitoblar, memoreal orderlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, ularni rasmiylashtirilishi va hisobini yuritish. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari.<br><br>**4-mavzu. Bank daromadlari, xarajatlari, soliqlar, yig‘imlar va balansdan tashqari operatsiyalar hisobi**<br>Bank daromadlari va ularning tarkibi. Bankning foizli va foizsiz daromadlari, ularning hisobi. Bank xarajatlari, ularning tarkibi, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarini hisobga olish. Bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi.<br>Bankning budjet va budjetdan tashqari to‘lovlari turlari va ularni hisoblash. Banklarda daromad solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i, yekologiya solig‘i, mol-mulk solig‘ini hisoblash va hisobini yuritish tartibi. Budjetdan tashqari to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarni bank buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.<br>Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi mazmuni. Bank kafolatlari va ularning hisobi. Muddatli bitimlar va ularning hisobi. Banklarda qimmatliklarni saqlash xizmatlari hisobi. Trast operatsiyalari hisobi.<br><br>**5-mavzu. Bank buxgalteriya hisobotlari va tijorat banklari faoliyatini tahlilini tashkil qilish**<br>Bank buxgalteriya hisobotlarining ahamiyati va turlari. Joriy buxgalteriya hisobotining mazmuni. Yillik hisobotning mazmuni, uni tuzish va tasdiqlash tartibi. Bank kunlik balansi mohiyati va tuzish tartibi. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari. Yillik bank hisobotlarini matbuotda e’lon qilish.<br>Tijorat banklari faoliyatini tahlili qilish zaruriyati, predmeti va metodlari. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklari faoliyatini tahlili qilishda bank balansining ahamiyati va uning tahlili. |

Bank faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalari.

**6-mavzu. Bank kapitali, majburiyatlari, aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili**

Bank kapitali va uning tarkibi. Bank kapitali holati tahlil qilish ko'rsatkichlari va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. Tijorat banklarining birinchi darajali kapitali va uning tarkibiy qismlarining tahlili. Tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali, uning tarkibi. Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida bank kapitalining barqarorligi tahlili.

Bank majburiyatlarini tarkibiy tuzilishi. Bank majburiyatlarining tarkibiy jihatdan tahlili. Bank majburiyatlarining muddatlari jihatidan tahlili. Bank majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar. Bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazorat. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida majburiyatlar barqarorligini ta'minlash.

Bank aktivlarining mohiyati va tahlil vazifalari. Bank aktivlari holati ko'rsatkichlarining tahlili. Bank aktivlari tarkibining tahlili. Bank aktivlarini daromadlilik jihatlari tahlili. Bank aktivlarini risklilik darajasi bo'yicha tahlili. Bank aktivlaridan samarali foydalanish yo'llari. Bank aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlariga ta'sir yetuvchi omillar tahlili. Bank aktivlariga ta'sir yetuvchi omillar tahlili. Moliyaviy koeffitsiyentlar. Aktivlar sifati koeffitsiyentlari. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tahlili, o'sish koeffitsiyentlari, balans hisobotini foizlar nisbatida tahlil qilish. Balansdan tashqari moddalar tahlili. Moliyaviy koeffitsiyentlar. Aktivlar sifati koeffitsiyentlari. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tahlili, o'sish koeffitsiyentlari, balans hisobotini foizlar nisbatida tahlil qilish. Balansdan tashqari moddalar tahlili.

**7-mavzu. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari, kredit portfeli, qimmatli qog'ozlar operatsiyalari, daromadlari va xarajatlarini tahlili**

Tijorat banklari kredit portfelining tahlili. Kredit portfeli diversifikatsiyasi tahlili. Bank kreditlarining ta'minlanganligi tahlili.Kredit hajmi va uning aylanuvchanligi tahlili. Kreditlar bo'yicha foizlarning hisoblanishi, undirilishi va daromad hisobvaraqlariga o'tkazilishi tahlili. Kreditlarning qaytarilishi tahlili. Kredit monitoringi tahlili. rstrukturizatsiya qilingan muddati o'tgan kreditlar tahlili. Banklarning muammoli kreditlari tahlili.Tijorat banklarining kredit resurslaridan samarali foydalanishning tahlili.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalari mohiyati. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarining turlari. Tijorat banki qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining holati va tarkibining tahlili. Banklarning anderrayting operatsiyalari tahlili. Banklarning brokerlik operatsiyalari tahlili. Banklarning brokerlik operatsiyalari tahlili. Moliyalashtirish operatsiyasi sifatida REPO bitimlarini hisobga olinishi tahlili. Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari sifatida REPO bitimlari tahlili. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan olinadigan daromadlari tahlili. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar tahlili.

Bankning asosiy operatsiyalari bo'yicha sof daromadlarni tahlil qilish.

| | |
|---|---|
| | Banklarga jalb qilingan mablag'larni tannarxini aniqlash va uning tahlili. Bank foizli va foizsiz daromadlari tahlili. Bankning oddiy va murakkab foizlarni hisoblash usullari va uning tahlili. Bankning umumiy faoliyati bo'yicha daromadlarni aniqlash. Bank operatsiyalarining daromadlilik ko'rsatkichlari tahlili. Bank daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Bankning operatsiyalari bo'yicha xarajatlar tarkibi. Bank foizli, foizsiz va operatsion xarajatlari tahlili. Bank xarajatlariga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Bank xarajatlarini kamaytirish yo'llari.<br><br>**8-mavzu. Tijorat banklari likvidliligi va moliyaviy natijalari tahlili**<br>Tijorat banklarining likvidliligi va uni tahlil qilish. Bank ikvidliligiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar va uni tahlili. Tijorat banklarining likvidliligi koyeffitsiyentlar usuli bo'yicha tahlil qilish. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligini tahlili. Tijorat banklarining iqtisodiy normativlarga rioya qilishini tahlil qilish. Bank tizimini yanada isloh qilish va institutsional rivojlantirish, xalqaro andozalar asosida tijorat banklari kapitallashuv darajasini, barqarorligini va likvidligini oshirish, o'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish.<br>Tijorat banklarining moliyaviy natijalarining shakllanishi. Tijorat banklari moliyaviy natijalarini baholash ko'rsatkichlari. Tijorat banklari foydasi. Tijorat banklari rentabellik (foydalilik) o'rsatkichlari. Tijorat banklari kapitali va aktivlari rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir yetuvchi omillar tahlili. Tijorat banklari foydasi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir yetuvchi omillar. Tijorat banklari foydasini oshirish yo'llari. Tijorat banklarining moliyaviy holatini va barqarorligini baholash va uning natijalarini doimiy ravishda ko'rib chiqish mexanizmi. Banklar kapitali, aktivlari,boshqaruvi,daromadlari, ajburiyatlarining sifati va darajasini xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL tizimining yangi talqinini tadbiq qilishni ko'zda tutgan holda tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish.<br><br>**9-mavzu. Bank auditining mohiyati, metodi, vazifalari, bank auditining tashkil qilinishi va turlari**<br>Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. Bank auditining predmeti va metodi. Moliyaviy hisobot ma'lumotidan foydalanuvchilar. Auditning maqsadi va vazifalari. Respublikada bank auditini rivojlanish bosqichlari. Bank auditiga doir qo'shimcha vazifalar va talablar.<br>Banklarda auditni tashkil etish masalalari. Auditning turlari. Audit o'tkazishning prinsiplari. Auditga hamroh bo'ladigan xizmat turlari. Auditorning etikasi. Auditorning huquq va majburiyatlari. Auditorlarning mustaqilligi.<br><br>**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fan bo'yicha laboratoriya va kurs ishlari mo'ljallanmagan)**<br>Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va banklarda balansning yuritilishi<br>2. Bank hujjatlari, bank ichki nazorati, banklarda bosh va yordamchi kitoblar |

3 Mijozlarga hisobvaraq ochish hamda yuritish tartibi, banklarda depozit va naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalari hisobi

4 Bank daromadlari, xarajatlari, soliqlar, yig'imlar va balansdan tashqari operatsiyalar hisobi

5 Bank buxgalteriya hisobotlari va tijorat banklari faoliyatini tahlilini tashkil qilish

6 Tijorat banklari likvidliligi va moliyaviy natijalari tahlili

7 Bank auditining mohiyati, metodi, vazifalari, bank auditining tashkil qilinishi va turlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi
2. Bank hujjatlari va hujjatlar aylanishi
3. Bank ichki nazorati
4. Banklarda bosh va yordamchi kitoblar
5. Mijozlarga hisobvaraq ochish va yuritish tartibi
6. Banklarda depozit operatsiyalari hisobi
7. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari hisobi
8. Banklararo hisob-kitoblar hisobi
9. Banklarda kassa operatsiyalari hisobi
10. Banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi
11. Banklarda lizing va faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi
12. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hisobi
13. Valyuta operatsiyalari hisobi
14. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi
15. Bank daromadlari va harajatlari hisobi
16. Banklarda soliqlar va majburiy to'lovlar hisobi
17. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi
18. Bank buxgalteriya hisobotlari
19. Auditorlik tashkilotlar va auditorlarning huquqlari hamda majburiyatlari
20. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi
21. Mijozlarga ko'rsatilgan hisob-kitob operatsiyalari auditdan o'tkazish tartiblari
22. Chet el valyutasidagi operatsiyalar va hisob-kitob shakllarining auditi
23. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi, ularni hisobga olishning auditi, uning o'tkazilish tartibi
24. Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni va tartiblari
25. Faktoring operatsiyalari auditi, lizing operatsiyalari auditi
26. Daromadlarning hisobi va budjet bilan bog'liq munosabatlari auditi
27. Xarajatlar hisobi auditi

| | |
|---|---|
| | 28. Bank faoliyati, uning faoliyati va xarajatlari auditi bo‘yicha auditorlik xulosalari, ularning bank faoliyatini samarali olib borishdagi ahamiyati<br>29. Qimmatli qog‘ozlar bilan bank operatsiyalar audit, uning maqsadi va vazifalari<br>30. Davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalarni tekshirish<br>31. Debitorlar va kreditorlar bilan audit qilish tartibi<br>32. Qimmatli qog‘ozlar auditi<br>33. Valyuta operatsiyalari auditi<br>34. Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi<br>35. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari<br>36. Tijorat banklari balansi va uni tahlili<br>37. Tijorat banklari kapitalini tahlili<br>38. Bank aktivlari daromadliligi va risklilik darajasi bo‘yicha<br>39. Banklar likvidliligi tahlili<br>40. Muammoli kreditlar va ularning tahlili<br>41. Aksiya va obligatsiyalar daromadlari va ularni tahlili<br>42. Tijorat banklarining uzoq muddatli investitsiyalari va ularning tahlili<br>43. CAMEL tizimi va uning qo‘llanilishi<br>44. Tijorat banklarining reytingini aniqlash usullari<br>45. Chet el amaliyotida banklarning likvidlilik darajasini tahlil qilish<br>46. Kredit operatsiyalarining daromadlari va uning tahlili<br>47. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari va ularning tahlili<br>48. Tijorat banklarining kredit portfelini tahlili<br>49. Tijorat banklarida mijozning biznes rejasini tahlili qilish<br>50. Tijorat banklarining aktivlarini tahlili<br>51. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili<br>52. Xalqaro amaliyotda aktivlar sifatini aniqlash koyeffitsiyentlari<br>53. Tijorat banklari sof foydasi tahlili<br>54. Tijorat banklarini foizli va foizsiz daromadlari tahlili<br>55. Tijorat banklarini foizli va foizsiz xarajatlari tahlili<br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan individial topshiriqlar variantlarini ishlab topshirishlari tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>- bank tizimi, bank faoliyati, banklarning turlari va bank tizimining elementlarini;<br>- banklarda buxgalteriya hisobi, tahlili va auditini tashkil etish asoslari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;<br>- naqd pulsiz hisob-kitoblar hisobi, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar hisobi, banklararo hisob-kitoblar hisobi, kredit operatsiyalari hisobi, kassa operatsiyalari hisobi, banklar faoliyatlarini tahlil qilishda qo‘llaniladigan usullar, tijorat banklari faoliyati tahlilining axborot manbalari, tahlildan tegishli xulosalar |

| | |
|---|---|
| | chiqarish va banklar faoliyati ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘llari to‘g‘risida, banklarda auditorlik tekshiruvini o‘tkazish usullarini, auditorlik tanlash usullarini, ichki va tashqi auditni tashkil etish qoidalarini, auditorlik tekshiruvlarida ma’lumotlarni tahlil qilishni **bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak**;<br>- O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini tartibga solish, buxgalteriya o‘tkazmalarini jahon andozalari asosida bajarilishi, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari tuzish, banklarda qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishi va hujjatlarning aylanishi, xalqaro amaliyotda tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish usullari, banklar faoliyatini reyting baholashning xalqaro tajribasi, xalqaro amaliyotda banklar aktivlari sifatini baholash ko‘rsatkichlari, bank faoliyatlari samaradorligi tahlili, bank auditida riski darajalarini aniqlash, kreditlar va qimmatli qog‘ozlar auditi, valyuta operatsiyalari auditi, bank daromadlari va xarajatlari auditini tashkil etish, tijorat bankning moliyaviy hisobot standartlariga mos ravishda hisobotlarni tuzish va taqdim etish **malakalarga ega bo‘lishi kerak**. |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- ma‘ruzalar;<br>- interfaol keys-stadilar;<br>- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol- javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>**1.** Navro‘zova K.N., Karimov N.G’., Ortiqov U.D. Banklarda buxgalteriya hisobi T.: Davr nashriyoti, 2012.<br>**2.** Omonov A., Qoraliev T. Banklarda buxgalteriya hisobi T.: Iqtisod–moliya, 2014 y. 241 b.<br>**3.** Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D.,– Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari / darslik – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019 – 500 b.<br>**4.** Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi / darslik – T.: «Nihol-print», 2021 – 580 b.<br>**5.** Donald Resseguie, James M. Koltveit. Accounting for banks AQSh, Metthew Bender Elite Products, 2021.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>**6.** Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S.. Banklarda buxgalteriya hisobi: O‘quv qo‘llanma / -Toshkent: “ZEBO PRINT”, 2021. - 344 b.<br>**7.** Yadgarova M., Qurbonov R. Bank auditi. Darslik. –T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2019 y. |

| | |
|---|---|
| | **8.** Karaliev T.M., Sattorov O.B., Sayfiddinov I.F. “Tijorat banklar faoliyat tahlili” o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2014. 25 b.<br><br>**Axborot manbaalari**<br>**9.** www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.<br>**10.** www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>**11.** www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>**12.** www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.<br>**13.** www.ifrs.org - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashi rasmiy sayti. |
| **7.** | Fanning o’quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2023 yil 30 maydagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>Fanning o’quv dasturi institut o‘quv-uslubiy Kengashining 2023 yil 27 maydagi 10-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.<br>Fanning o’quv dasturi “Iqtisodiyot” fakultetining 2023 yil 25 maydagi 10-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.<br>Fanning o’quv dasturi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2023 yil 19 maydagi 18-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>O.N.Xushmuradov - “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.n.. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Sh.X.Muxiddinov - QarDU, “Turizm va marketing” kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD), iqtisodiyot fanlari nomzodi<br>S.R.Egamberdiyeva - QarMII, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi |